Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

# “GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURKIY TILLAR TA’LIMI VA TADQIQI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

## Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**2026-yil 16-aprel**

**NIZOMIY NOMIDAGI**
**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

# “GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURKIY TILLAR TA’LIMI VA TADQIQI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro

ilmiy-nazariy konferensiya

materiallari

**TOSHKENT – 2026**

**OO‘K: 821.512.133**
**KBK: 83.3(5o‘)**

Mazkur 1 jilddan iborat kitob O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 11-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2026-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar REJASI” 1-ilovasiga muvofiq Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Filologiya fakultetida ***“Globallashuv sharoitida turkiy tillar ta’limi va tadqiqi: muammo va yechimlar”*** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlandi. To‘plam tilshunos olimlar, izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari magistrlar hamda bakalavrlar uchun mo‘ljallangan.

**TO‘PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHI:**

Nizomiy nomidagi O‘zMPU dotsenti, f.f.f.d.(PhD) O‘razbayeva Mahbuba
Nizomiy nomidagi O‘zMPU katta o‘qituvchisi,
f.f.f.d. (PhD) Xudoyberdiyeva Sevara

**BOSH MUHARRIR:**

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori Ibrohim Yo‘ldoshev
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Baxrom Kulmatov

**MAS’UL MUHARRIR:**

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi,
katta o‘qituvchisi, f.f.f d. (PhD) Yoqubova Sevara
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi, f.f.f d. (PhD) Norova Shahodat

**TAQRIZCHILAR:**

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori Qahramonov Qurdosh
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti Dosanov Nuriddin
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti Burxonova Feruza

***Ushbu to‘plam Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Filologiya fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2026-yil 15-apreldagi yig‘ilishining 17-son bayonnomasi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.***

2. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,2013
3. Sh.Rahmatullayev.O‘zbek tili frazeologik lug’ati. – Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 2022
4. B.Yo‘ldoshev.Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.

## QADIMGI TURKCHA BITIGTOSHLARDAGI RANG KOMPONENTLI ETNOLEKSEMALAR XUSUSIDA

**Dustmurodov Ma’rufjon**
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent. TDSHU mustaqil tadqiqotchisi (DSc).

**Annotatsiya.** Dunyo tilshunosligida sohalar mavzuiy leksikasi har bir tilning o‘ziga xos imkoniyatlarini namoyon etuvchi va, shubhasiz, uning lug‘at qatlamini boyitishga xizmat qiluvchi til rivojlanishining asosiy manbayi hisoblanadi. Tilshunoslikda ma’lum bir tarixiy davrda faol qo‘llanishda bo‘lgan lug‘at tarkibini tadqiq etish, badiiy matnlar tilini o‘rganish, ulardagi leksik birliklarni statistik tahlil qilish, tarixiy-etimologik va semantik tasniflash, uslubiy xususiyatlarni aniqlash dolzarb ahamiyatga ega. Shu sabab o‘laroq biz quyidagi maqolamizda O‘tukan Uyg‘ur xoqonligi bitigtoshlaridagi topoleksemalar, xususan *yär* leksemasi, lingvistik va tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksemaning kosmogonik, siyosiy-ijtimoiy, hududiy va urbanistik ma’nolari ko‘rib chiqilib, *su* va ïlaγ kabi boshqa makoniy terminlar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi.

**Tayanch tushunchalar:** Turk-runik yozuvi, toponimlar, yär, sub, ïlaγ leksemalari, qadimgi turkiy til.

**Аннотация.** В мировой лингвистике тематическая лексика различных сфер считается основным источником развития языка, демонстрирующим уникальные возможности каждого языка и, несомненно, служащим обогащению его словарного состава. В языкознании особую актуальность приобретают исследования словарного состава, активно употреблявшегося в определённый исторический период, изучение языка художественных текстов, статистический анализ лексических единиц, их историко-этимологическая и семантическая классификация, а также выявление

стилистических особенностей. В связи с этим в данной статье анализируются тополексемы в надписях Уйгурского каганата Отюкена, в частности лексема yär, с лингвистической и исторической точек зрения. В исследовании рассматриваются космогонические, общественно-политические, территориальные и урбанистические значения данной лексемы, а также анализируется её связь с другими пространственными терминами, такими как su и ïlaγ.

**Ключевые слова:** тюркская руническая письменность, топонимы, лексемы yär, sub, ïlaγ, древнетюркский язык.

**Abstract.** In world linguistics, the thematic vocabulary of different fields is considered one of the main sources of language development, reflecting the unique capabilities of each language and undoubtedly contributing to the enrichment of its lexical layer. In linguistics, the study of vocabulary actively used during a certain historical period, the analysis of literary texts, the statistical examination of lexical units, their historical-etymological and semantic classification, as well as the identification of stylistic features, are of great relevance. Therefore, this article analyzes the topolexemes found in the inscriptions of the Ötüken Uyghur Khaganate, particularly the lexeme yär, from linguistic and historical perspectives. The study examines the cosmological, socio-political, territorial, and urban meanings of the lexeme and analyzes its relationship with other spatial terms such as su and ïlaγ.

**Keywords:** Turkic runic script, toponyms, lexemes yär, sub, ïlaγ, Old Turkic language.

Turkiy xalqlarning eng qadimgi bitigtoshlari – bu mazkur xalqlar tarixi, tili va madaniyatini o‘rganishda bebaho manba hisoblanadi. O‘rxun, Yenisey, Turfan, Oltoy va boshqa hududiy yodgorliklar bitiglari asosan VI-IX asrlarga mansub bo‘lib, ular turkiy xalqlarning davlatchilik an’analari, ma’naviy dunyoqarashi va ijtimoiy, harbiy hayoti haqida boy ma’lumot beradi. Bu yozma yodgorliklar nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki turkiy tilning ilk yozma namunasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ular orqali turkiy tilning grammatik tuzilishi, so‘z boyligi va uslubiy xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, mazkur yodnomalarda o‘sha davr leksikasi semantik-funksional jihatdan boy tarzda aks etgan. Xususan, makon bildiruvchi leksik qatlamda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yodnomalardagi topoleksemalar turli kontekstual ma’nolar kasb etib, matnning uslubiy kuchini yanada orttirgan. Bu ayniqsa *yär* – “yer, zamin; tuproq” leksemasining qo‘llanishida faol amalga oshgan. Darhaqiqat, qadimgi turkiy tafakkurga dunyo uch qat (yarus)dan iborat edi: ko‘k-osmon, yag‘iz-qaro yer va o‘rtaliq, inson bolalari. Buni bitigtoshlar matnining boshidan joy olgan quyidagi jumlalarda ko‘rish mumkin: “*Üzä Kök Täŋri asra yayïz yär qïlïnduqda ikin ara kiši oylï qïlïnmïš. Kiši oylïnta üzä äčüm apam Bumïn qayan, İstämi qayan oturmïš* – Tepada ko‘k osmon, pastda qaro yer yaratilganda ikkisining orasida kishi (inson) bolalari yaratilgan. Kishi (inson) bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istami xoqon taxtga o‘tirgan” (KT, 1). Qo‘llanishiga ko‘ra siyosiy-ijtimoiy, diniy-mifologik ma’nolarni tashigan *yär* – yer so‘zi qadimgi turkiy tilga tegishli deyarli barcha yodnomalarda unga muqaddaslik yuklanmaganda avvalo keng ma’noda “yer yuzi”ni anglatgani holda quyidagi ma’nolar kasb etgan. Mazkur leksema bitigtoshlarda turli polisemiya hodisalarini shakllantitib keladi, shu jihatdan u qadimgi turkiy tilde quyidagi ma’nolarni ifodalagan:

**1. Umumiy ma’noda “yer yuzi”.** Bunda unga muqaddaslik tushunchasi yuklanadi. Chunki bitiglarda *yayiz yär* deyish orqali butun dunyo qati ta’kidlanishi o‘laroq, bu orqali qadimgi turkiylarning butun makonga ilohiy humkmronligi legitimlashtiriladi: *“üzä kök täŋri yarïlqaduq : üčün asra yayiz yär : igitük : üčün : älimän : törümün ätintim* – Yuqoridagi moviy Tengri (Osmon) yarlaqagani uchun, pastdagi yag‘iz yerning homiyligi bilan yurtim, hukumatimni tartibga keltirdim” (Tar $_{G‘\ 1}$); *“atïmïn üzä : kök täŋri : asra : yayïz yär : yana...ntar atantïm* – yil o‘tibdi. Nomimni yuqorida ko‘k osmon, pastda qora yer yana ... ataldim” (Tar $_{Shar\ 4\text{-}5}$). Quyidagi misolda “*yär: ayu: bärti* – yer buyruq berdi” iborasi qadimgi turk mafkurasiga ko‘ra yerga moviy ko‘kka oid ilohiy kuchdan kam bo‘lmagan muqaddaslik yuklangani oydinlashadi: *“(täŋri) yär: ayu: bärti: anta: šančdïm: yazïqlïγ atlïγ (ïγ) ... täŋri: tuta bärti* – (Tangri va) yer buyruq berdi. O‘shanda o‘ldirdim. Gunohkor otliqlar (bizningcha aybdordar)ni Tangri tutaverdi” (ShU $_{Shar\ 2}$).

Ushbu misollardan shuni aytish mumkinki, *yär* leksemasi qadimgi turkiy matnlarda oddiy nominativ birlik emas, balki konseptual-kosmologik kategoriya vazifasini bajaradi, ya’ni u bir vaqtning o‘zida kosmogonik unsur sifatida koinot tuzilmasining pastki qatlamini, siyosiy-ideologik ramz sifatida hukmdor hokimiyatining makoniy legitimatsiyasini hamda ilohiy iroda bilan bog‘liq kuchni ifodalagan, ayniqsa *yayiz yär* birikmasi makonning umumiyligi va mutlaq

qamrovini bildiradi, *yär ayu bärti* konstruktsiyasi esa yer obrazini qadimgi turkiy dunyoqarashda tabiat unsurlarining ilohiy talqin qilinganini tasdiqlaydi.

**2. “Muayyan jo‘g‘rofiy hudud, area; shahar”** ma’nolarida. “Muayyan joy” ma’nosi *ötükän yär* birikmasida yanada aniq namoyon bo‘ladi: *“öŋdüni qanuy : künüy : biz ... qïčlayïm*[91] *ötükän yäri* – Sharqi Qanuy va Kunuy irmoqlari ... qishlog‘im O‘tukan yeri (Tar $_{G‘\ 5}$). Mazkur satrda O‘tükenning *yär* shaklida nomlanishi ham diqqatga sazovordir. Bu misollar, shuningdek, uning “shahar; yashash uchun qurilgan joy” ma’nolarida ham idrok etilishi mumkinligini ko‘rsatadi. *yär* leksemasi bu o‘rinda umumiy kosmik makon emas, balki konkret lokal makonni bildiruvchi toponimik birlik sifatida qo‘llangan bo‘lib, *ötükän yär* birikmasida u geografik xoslik vazifasini bajaradi va hududni aniq chegaralangan yashash joyi sifatida aniqlashtiradi, natijada leksemaning ma’no doirasi kengayib, “joy”, “maskan”, “ma’muriy hudud”, hatto urbanistik tushunchaga yaqin “shahar yoki qarorgoh” semalarini ham qamrab oladi.

**3. “Muayyan davlat yoki etnosga tegishli siyosiy hudud; sarhad, chegara”** ma’nosida. Quyidagi biz keltirgan parchalardagi misollar *yär* leksemasining qadimgi turkiy til tizimida siyosiy-hududiy termin sifatida ham faol ishlatilganini ko‘rsatadi, bunda u oddiy makon nomi emas, balki muayyan xalq, qabila yoki davlat tasarrufidagi siyosiy territorial birlikni anglatuvchi leksik vosita vazifasini bajaradi, ya’ni *Uyγur yärintä, äš yäri, yärin tapa* kabi birikmalarda leksema etnik-siyosiy belgi bo‘lib, hududni egalik, nazorat va chegaralanganlik semalari bilan birga ifodalaydi, natijada u “sarhad”, “mamlakat hududi”, “davlat makoni” ma’nolarini hosil qilib, qadimgi turkiy siyosiy tafakkurda makon tushunchasi hokimiyat va harbiy-strategik nazorat bilan uzviy bog‘langanini tasdiqlaydi: *“Uyγur: yärintä: Yaylaqar: qan: (a)ta: käligmä* – Uyg‘ur yurtidagi Yag‘laqarxonni so‘rab kelgan” (Suj 1); *“äši yär tapa : az är ïtdïm : kör tädim : qïrqïz qanï : kögmän : irintä* – Ittifoqchilar yerini o‘rganish uchun az (yo‘lboshlovchi, yerchi)ni yubordim. “Ko‘r” dedim. Qirg‘izlar xoqoni Ko‘gman yerida (shimolida)” (ShU $_{Sha\ 11}$); *“yälmäsin äš: yäriŋärü: ïdmïš* – Avangard (yoki musallah)ini ittifoqchilar yeriga yuboribdi” (ShU $_{Sha\ 12}$); *“yaγï bol… turup yärin tapa bardï* – dushmanga aylandilar... turib o‘z yeriga to‘g‘ri bordi” (ShU $_{Jan\ 6}$). Shuningdek, O‘rxun bitiglarida ko‘zga tashlanadigan *yär bayïrqu, az yär* birikmalari tilga olingan qabila va/yoki davlatlarning joylashgan hududlarini, ya’ni mamlakatlarini ifodalaydi. *yärgärü* shaklida so‘z tor ma’noda ishlatilgan bo‘lsa,

[91] Э.Айдинда *ïč(ï)layïm* – ич ўтлоғим. Бу учун қаранг: Aydin E. Uygur yazıtları. 2 basım. – İstanbul: Bilge kültür sanat. 2021 – S. 45.

*ötükän yär* birikmasida “muayyan hudud” ma’nosi ifodalangan. Bundan tashqari, O‘tükenning ham *yär*, ham *yïš* bilan atalishi tahlil uchun muhim ma’lumotlar mavjudligini ko‘rsatadi [12, 478].

Taryat bitigining 4-satrida yer so‘zi suv so‘zi bilan birga qo‘llanib, kengroq ma’noda butun “yurt; zamin; vatan”ni anglatib keladi: *“ötükän äli tägräs äli äkin ara ïlaγïm tarïγlaγïm : säkiz säläŋä : orqun toγla : säbin : täläd ü : qaraγa : borγu : ol yärimin subumïn qonar köčär bän* – O‘tukan va Tegres yurti, bu ikkisning orasidagi vodiylarim va dalalarim sakkiz (ko‘lli) Selenga, O‘rxun, Tula, Sevin, Teledu, Qarag‘a (va) Borg‘u. Bu yerlarimda, daryolarim bo‘yida qo‘naman, ko‘chaman, ya’ni bu yaylovlarim, qishloqlarim, yozloqlarim bo‘lgan yerlar” (Tar G‘ 4). Bu yerda *ötükän* va *tägräs* atamalari *äl* bilan ifodalangan bo‘lib, vodiy va ekin yerlari kabi quruqliklardan keyin suv obyektlari sanab o‘tiladi. Bularning barchasi keyinchalik *yär sub* shaklida umumlashtirilib, matn mazmuni davom ettiriladi. Shu tariqa bayon etilayotgan tushuncha “quruqlik va suvlarni o‘z ichiga olgan butun vatan; yer usti boyliklari” ekanligi ayon bo‘ladi [12, 482].

*yär* so‘zi “yurt; davlat” ma’nosidagi *äl* bilan sinoninimik holatda parallel ishlatilgan o‘rinlar ham mavjud bo‘lib, bu Yenisey bitiglarida ko‘zga tashlanadi: “*öz yärim ïdoq yärim äsiz ä äsiz älim qanïm kün ay äsiz ä n astägi ö<z> yärimin bäg<i> ögür* – o‘z yurtim, muqaddas yurtim, afsus! Muqaddas mamlakatim, xonim, quyosh (va) oy, afsus! <...> qadar o‘z yurtimning bekini madh etaman” (Y 42/1) [1, 142]. Mazkur parcha *yär* leksemasining siyosiy-ijtimoiy birlikni anglatuvchi *äl* leksemasi bilan sinonimik parallel konstruksiya hosil qilib, “yurt; davlat” tushunchasini ifodalaydi, natijada *öz yärim – älim* kabi yonma-yon qo‘llanishlar semantik ta’kidlash va ekspressivlikni kuchaytiruvchi stilistik usulga aylanadi. Aytish kerakki, bunday tasvir qadimgi turkiy nutq an’analarida leksik juftliklar orqali tushunchani mustahkamlash tamoyili mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

*yär* leksemasi dastlab kosmogonik va makoniy tushunchani ifodalagan bo‘lsa, keyingi davrlarda ijtimoiy, siyosiy, ma’muriy, hatto maishiy-semantik qatlamlarni ham qamrab olgan. Eski uyg‘ur turkchasida *yär* leksemasi eng keng semantik ko‘lamga ega bo‘lib, u “joy”, “yer yuzi”, “dunyo”, “tuproq”, “yer maydoni”, “hudud”, “soha”, “mintaqa”, “zamin”, “dala”, “mamlakat”, “yurt” kabi umumiy va konkret makoniy tushunchalar bilan bir qatorda “yo‘l”, “masofa”, “atrof”, “chekka”, “uzoqlik”, “shimol” singari nisbiy-makoniy yo‘nalish va koordinata semalarini ham ifodalagan. Qoraxoniy turkchasida *yär* asosan “joy”, “yer yuzi”, “hudud”, “qism”, “mamlakat”, “shahar”, “tuproq” ma’nolarida qo‘llanib, ayrim matnlarda “boshpana”, “buloq”, “chashma boshi” kabi konkret lokal obyektlarni

ham anglatgan bo‘lsa, xorazm turkchasida *yär*ning ma’no doirasi nisbatan abstraktlashib, “joy”, “yurt”, “dunyo” bilan bir qatorda “maqom”, “makon”, “manzil” kabi ijtimoiy va mavqeyni bildiruvchi semalarni ham qamrab olgan. Bu jarayon makon tushunchasining metaforik kengayishi, ya’ni ijtimoiy-holatiy kategoriyaga ko‘chishini anglatadi [3, 298; 20, 889; 19, 678-688; 18, 989-990]. Umuman olganda, *yär* leksemasining turli tarixiy bosqichlardagi semantik evolyutsiyasi uning dastlabki kosmologik-makoniy yadrosi saqlangan holda, ijtimoiy-siyosiy, ma’muriy, relatsion, metaforik va maishiy qatlamlar bilan boyiganini ko‘rsatadi.

Asosiy ma’nosi “suv” bo‘lgan *su* bitigtoshlarda “daryo, suv havzasi” ma’noda ishlatilgan: *“ötükän äli: tägräs äli: : äkin ara:olurmuš: subï: säläŋä ärmiš: anta: äli ärmiš: barmïš* – O‘tukan yurti va Tegres yurti o‘rtasida hukmronlik qilgan, uning suvi Selenga edi. Uning yeri o‘sha erda edi, ketdi” (ShU $_{Shi\ 2}$). *su* turkiy tillar tarixiy leksik qatlamida eng qadimiy va barqaror saqlangan gidronimik birliklardan biri bo‘lib, bitigtosh matnlarida ushbu leksema ko‘pincha toraygan kontekstual ma’noda qo‘llanib, umumiy suyuqlik nomidan ko‘ra aniq tabiiy geografik obyekt – “daryo”, “suv havzasi”, “suv manbayi”, shuningdek, “vatan; siyosiy egalik hududi” semalarini anglatgan. Leksema qoraxoniy va chig‘atoy turkchasida ham ayni shakl va ma’noda qo‘llangan. Xususan, DLTda va hozirgi o‘zbek tilida bu so‘z *suv* shaklida mavjud bo‘lib, geografik termin sifatida ishlatiladi. Xulosa qilish mumkinki, butun shimoliy-sharqiy Osiyoda hokimiyatga kelgan ashina undan keyin Yag‘laqar (Toquz O‘g‘uz) yoki boshqa sulolalarning barchasi o‘z humkronligidagi “quruqlik va suvlarni o‘z ichiga olgan butun yurt” – yer-suvga o‘zini vorisiy-legitim sohib deb bilgan.

Shuningdek, bitiglarda “vodiy” ma’nosidagi *ïlaγ* (Tar $_{G‘\ 4}$) leksemasi ham borki, u yodnomlarda juda kam tilga olingan: *“(ötükän äli tägräs äli) äkin ara ïlaγïm tarïγlaγïm : säkiz säläŋä : orqun toγla : säbin : tälädü : qaraγa : borγu : ol yärimin subumïn qonar köčär bän* – O‘tukan va Tegres yurti, bu ikkisning orasidagi vodiylarim va dalalarim sakkiz (ko‘lli) Selenga, O‘rxun, Tula, Sevin, Teledu, Qarag‘a (va) Borg‘u. Bu yerlarimda, daryolarim bo‘yida qo‘naman, ko‘chaman, ya’ni bu yaylovlarim, qishloqlarim, yozloqlarim bo‘lgan yerlar” (Tar $_{G‘\ 4}$). Keltirilgan misol *ïlaγ* leksemasining qadimgi turkiy leksik tizimda tor qo‘llanishli, ammo semantik jihatdan aniq ixtisoslashgan geografik termin bo‘lganini ko‘rsatadi. Ushbu birlik matnda *tarïγlaγïm* (“dalalarim”) bilan juftlikda kelib, *ïlaγ* tabiiy makon shakli sifatida “vodiy”ni, *tarïγlaγ* esa inson xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq “ekin

maydoni, dala”ni anglatib, makonning tabiiy va madaniy qatlamlarini qarama-qarshi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi elementlar sifatida tasvirlaydi.

Xullas, *yär* leksemasi qadimgi turkiy matnlarda nafaqat oddiy makon nomi, balki konseptual-kosmologik, siyosiy-ijtimoiy, ijtimoiy-hududiy va urbanistik funksiyalarni bajaruvchi ko‘p qatlamli birlik sifatida namoyon bo‘lgan. Leksema bitigtosh matnlarida umumiy “yer yuzi”dan tortib, muayyan hudud, shahar, davlat va yurtni anglatadigan ma’nolarini egallagan, ba’zi hollarda *äl* bilan sinonim tarzda parallel ishlatilib, semantik ta’kidlash va stilistik ekspressivlikni kuchaytirgan. *su* leksemasi asosiy ma’nosi “suv” bo‘lib, bitigtoshlarda daryo va suv havzasi kabi gidronimik semalarda, shuningdek, siyosiy hududni ifodalovchi ma’noda ham ishlatilgan. *ïlaγ* esa tor ma’noda “vodiy”ni anglatuvchi, lekin makonning tabiiy va madaniy qatlamlarini birlashtiruvchi ixtisoslashgan leksik birlik sifatida aniqlangan. O‘tukan Uyg‘ur xoqonligi bitigtoshlaridagi topoleksemalar qadimgi turkiy tilning makoniy, siyosiy, kosmogonik va madaniy tafakkurini aks ettiruvchi boy leksik va semantik qatlamlarga ega bo‘lgan. Bu leksik birliklar yordamida bitigtoshlar matnining uslubiy kuchi oshgan, hudud, yurt va tabiat tushunchalari o‘zaro bog‘langan kompleks tizimda ifodalangan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aydın E. Sibirya’da Türk İzleri Yenisey Yazıtları. İstanbul: Kronik Kitap. 2019 – S. 142.

2. Aydin E. Uygur yazıtları. 2 basım. – İstanbul: Bilge kültür sanat. 2021 – S. 45.

3. Caferoğlu A. Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. 2015 – S. 298.

4. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903.

5. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972 – P. 781.

## HALIMA XUDAYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA SHAKL-MA’NO-VAZIFA YAXLITLIGINI TAMINLOVCHI

**Eshniyozova Gulhayo**

| T\R | MUALLIF VA MAQOLALAR | SAHIFA |
|---|---|---|
| 1. | **HILOLA UKTAMOVNA UMAROVA**<br>LOBALLASHUV SHAROITIDA TURKIY TILLARNI TADQIQ ETISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI | **3-4** |
| 2. | **QURDOSH QAHRAMONOV**<br>BADIIY MATNNING LINGVOPOETIK TADQIQI VA SO‘ZGA SADOQAT FENOMENI: AKADEMIK NIZOMIDDIN MAHMUDOV TALQINLARI MISOLIDA | **5-7** |
| 3. | **YO‘LDOSHEV IBROHIM JO‘RAYEVICH**<br>TURKIY TILLAR TARIXIGA OID MUHIM MANBA – “ATTUHFATUZ ZAKIYATU FIL LUG‘ATIT TURKIYA” ASARI HAQIDA | **7-13** |
| 4. | **YO‘LDOSHEV IBROHIM JO‘RAYEVICH, XABIBULAYEVA MARJONA SABIT QIZI**<br>ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA ARXAIZMLARNING QO‘LLANISHI | **13-16** |
| 5. | **YO‘LDOSHEV IBROHIM JO‘RAYEVICH, PARDAMURODOVA MAXBUBA SROCH QIZI**<br>ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI | **17-22** |
| 6. | **ADILOVA SAODAT ABDURAHIMOVNA**<br>SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA O‘ZBEK TILI DARSLARINI LOYIHALASHNING METODIK SALOHIYATI. | **22-24** |
| 7. | **ALLAYOROV TO‘LQIN ROZIQULOVICH, YAKUBOVA MUNISA HASAN QIZI**<br>OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI | **25-28** |
| 8. | **ALLAYOROV TO‘LQIN ROZIQULOVICH, KARIMOVA HUSNIYA KARIM QIZI**<br>O‘YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH | **28-31** |
| 9. | **ALLAYOROV TO‘LQIN ROZIQULOVICH, UMIDA YUSUBOVA.**<br>MULOQOTDA PARALINGVISTIK VOSITALARNING QO‘LLANISHI | **31-34** |
| 10. | **ABASHOVA FAZILAT**<br>IJTIMOIY TARMOQLAR TILI VA UNING O‘RGANILISHI | **34-37** |
| 11. | **ABDURAIMOVA MUNISA**<br>MUROJAAT SHAKLLARI TASNIFI | **37-39** |
| 12. | **ABDULLAYEVA DILOROM**<br>BADIIY ASARNI ANGLASH JARAYONIDA TAHLIL VA TALQINNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI | **40-47** |
| 13. | **ABDULLAYEVA AZIZA**<br>ULUG‘BEK HAMDAMNING ADABIY QARASHLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR | **47-53** |
| 14. | **ABDUJABBAROVA FERUZA**<br>JAHON TILSHUNOSLIGIDA XI-XII ASR TURKIY MANBALAR LEKSIKASINING TADQIQI MASALASI | **53-58** |

| | | |
|---|---|---|
| **15.** | **ABDUJABBAROVA FERUZA**<br>“ҚУРАМА” SHEVASINING O‘RGANILISHI XUSUSIDA | **58-64** |
| **16.** | **ALIMARDONOVA FARANGIZ**<br>ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI ODOB-AXLOQQA DOIR AYRIM LEKSIK BIRLIKLAR | **64-72** |
| **17.** | **АЛИМБАЕВА КАЛДЫКУЛ ТУЛЕУОВНА**<br>ТҮРКІ ӘДЕБИЕТІН ЦИФРЛЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АРҚЫЛЫ ОҚЫТУДЫҢ ИННОВАЦИЯЛЫҚ ӘДІСТЕРІ: ДУЛАТ ИСАБЕКОВТІҢ «ГАУһАРТАС» ШЫҒАРМАСЫ НЕГІЗІНДЕГІ КЕЙС-ЗЕРТТЕУ | **73-76** |
| **18.** | **АПБАЗОВА ҰЛПАН АПТЫҚАДЫРҚЫЗЫ**<br>ТҮРКІ ХАЛЫҚТАРЫНЫҢ ӘДЕБИЕТІ МЕН МӘДЕНИ МҰРАСЫ: ӨРКЕНИЕТТІК САБАҚТАСТЫҚ ЖӘНЕ ҚАЗІРГІ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ | **77-82** |
| **19.** | **АРЫНБАЕВА ДИЛЬДАКУЛЬ, ХАЛИКОВА НУРИЛА** ЭТНОМӘДЕНИ ФРАЗЕОЛОГИЗМДЕРДІ САЛЫСТЫРА ОҚЫТУ: ҚАЗАҚ ЖӘНЕ ӨЗБЕК ТІЛДЕРІ НЕГІЗІНДЕ | **82-88** |
| **20.** | **АСАН НАЗЕРКЕ БАҒЛАНҚЫЗЫ, ХАЛИКОВА НУРИЛА САТЫБАЛДЫҚЫЗЫ.**<br>ӘДЕБИ ШЫҒАРМАЛАРДЫ ОҚЫТУДА ВИЗУАЛДЫ МӘДЕНИЕТТІ ҚОЛДАНУ | **88-93** |
| **21.** | **ASADOVA SHAHZODA AZIZJON QIZI**<br>TERMINLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | **93-99** |
| **22.** | **AXMEDOVA MAFTUNA FAXRIDDINOVNA**<br>IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILGAN TEXNIKA TERMINLARINING SHAKLIY-STRUKTUR TUZILISHIGA DOIR. | **99-103** |
| **23.** | **AXTAMOVA MOHINISO**<br>ISAJON SULTON VA ORHAN PAMUK ASARLARIDA YO‘L XRONOTOPI ( “OZOD” VA “YENI HAYAT” ROMANLARI ASOSIDA) | **103-107** |
| **24.** | **АЙДАРХАН М.А.**<br>ЖЫРАУЛАР ПОЭЗИЯСЫН ҚҰНДЫЛЫҚҚА НЕГІЗДЕП ОҚЫТУДЫҢ ИННОВАЦИЯЛЫҚ МОДЕЛЬДЕРІ: ҰЛТТЫҚ ТӘРБИЕ МЕН ЦИФРЛЫҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАР СИНТЕЗІ | **107-114** |
| **25.** | **А.Т.ӘБДІҒАППАР**<br>Ж.АЙМАУЫТОВ ПРОЗАЛЫҚ ШЫҒАРМАЛАРЫН ИНТЕРАКТИВТІ ӘДІСТЕР НЕГІЗІНДЕ МЕҢГЕРТУ ЖОЛДАРЫ | **114-119** |
| **26.** | **ASHIROVA MAXBUBA FIRDAVSIYEVNA**<br>BADIIY DISKURSDA EVFEMIZMLAR VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI (FRANSUZ O‘ZBEK TILIGA OID MATERIALLAR MISOLIDA | **120-125** |
| **27.** | **БАЙҒҰТОВА Д.Н., МОЛДАНОВА Ж.І.**<br>ҚАЗАҚ ТІЛІН ОҚЫТУДА ТІЛ ДАМЫТУ ЖҰМЫСТАРЫН ТИІМДІ ҰЙЫМДАСТЫРУ ӘДІСТЕМЕСІ | **125-133** |
| **28.** | **BURXANOVA FERUZA ABDURAZZOQOVNA.**<br>ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDAGI YANGILANISH JARAYONLARI | **134-149** |
| **29.** | **BURXANOVA FERUZA ABDURAZZAKOVNA, IBROHIMOVA MADINABONU SAIDAZIM QIZI** | **149-153** |

| | | |
|---|---|---|
| | SHOYIM BO‘TAYEV IJODINING O‘ZBEK DABIYOTSHUNOSLIGIDA TUTGAN O‘RNI | |
| **30.** | **BURXANOVA FERUZA ABDURAZZOQOVNA, RAXIMBERDIYEVA FARANGIZ BAXTIYOR QIZI**<br>“ICHKARIGA” QAYTGAN INSON (ULUG‘BEK HAMDAMNING “BIR PIYOLA SUV” HIKOYASI ASOSIDA) | **154-157** |
| **31.** | **BOYQULOVA ADIBA**<br>“ERKAK/MEN” KONSEPTINING PERIFERIK ZONASI: DERIVATSIYAVIY VA ASSOTSIATIV MAYDONNING QIYOSIY LINGVOKOGNITIV TAHLILI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA | **158-161** |
| **32.** | **DOSANOV NURIDDIN, ARZIBEKOVA ZEBOXON G‘AYRATBEK QIZI**<br>TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMATIK XUSUSIYATLARI | **161-164** |
| **33.** | **DUSTMURODOV MA’RUFJON**<br>QADIMGI TURKCHA BITIGTOSHLARDAGI RANG KOMPONENTLI ETNOLEKSEMALAR XUSUSIDA | **165-171** |
| **34.** | **ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI**<br>HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA SHAKL-MA’NO-VAZIFA YAXLITLIGINI TA’MINLOVCHI OMILLAR | **171-176** |
| **35.** | **EGAMOVA SHOXIDA DJALILOVNA**<br>ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR SEMANTIKASI | **176-185** |
| **36.** | **HULKAR NE’MATOVA, ERGASHEVA FARANGIZ**<br>XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA INSON VA TABIAT MUNOSABATI TALQINI | **185-189** |
| **37.** | **ISMATULLAYEVA HUMORA JUMANAZAR QIZI**<br>YANGI AVLOD ONA TILI DARSLIKLARINI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV | **189-194** |
| **38.** | **ISMOILOVA KAMOLA ISROIL QIZI.**<br>GENDER STEREOTIPLARNING VA ULARNING DIALEKTOLOGIYA TUTGAN O‘RNI | **194-197** |
| **39.** | **ISMAILOVA NARGIZ NAVAZI**<br>LIMITATIONS OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN SCHOOL MANAGEMENT | **198-202** |
| **40.** | **ҚУАНБАЕВА Ж.С.**<br>ТІЛДІК ДЕРЕКТЕРДІ ГЕНЕРАЦИЯЛАУ АРҚЫЛЫ ҚАЗАҚ ТІЛІН ОҚЫТУДЫҢ ТИІМДІ ЖОЛДАРЫ | **203-212** |
| **41.** | **КЕРИМБАЕВА Д.Е.**<br>ҚАЗАҚ ФОЛЬКЛОРЛЫҚ КОНЦЕПТТЕРДІ КРЕАТИВТІЛІК ҰСТАНЫМ НЕГІЗІНДЕ ОҚЫТУ | **213-219** |
| **42.** | **MADALIYEV YARMUHAMMAD XUDAYBERGENOVICH**<br>O‘ZBEK JADIDCHILIGI VA QOZOQ ALASH HARAKATI: TARIX, TENDENSIYA VA MUSHTARAKLIK | **220-225** |
| **43.** | **MA’RUFALIYEVA FERUZABONU MA’RUFJON QIZI**<br>O‘TKIR RAHMAT SHE’RLARIDA LIRIK QAHRAMON RUHIYATI | **226-232** |
| **44.** | **MA’SUMA MO‘MINOVA, ABDUVOYITOVA MAFTUNA ANVAR QIZI**<br>TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA MADANIY MEROSI | **232-236** |

| | | |
|---|---|---|
| **45.** | **MUHAMMADJONOVA DILAFRUZ BUNYODBEK QIZI**<br>ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” ASARI LEKSEMALARI: LEKSIK-SEMANTIK VA BADIIY TAHLIL | **236-243** |
| **46.** | **МЫҢБАЕВА АҚБІЛЕК ПАЗЫЛХАН ҚЫЗ, ИБРАГИМОВ ГАНИШЕР ГУЛЯМОВИЧ**<br>ШЕШЕН СӨЗДІҢ ТУРЛЕРІ | **244-247** |
| **47.** | **MURODULLAYEVA SOHIBA XONDOLIM QIZI**<br>OLOV KONSEPTI VA UNING TADQIQI | **248-250** |
| **48.** | **NOROVA SHAHODAT BAXODIROVNA**<br>BADIIY MATNGA LINGVOMADANIY YONDASHUV | **250-255** |
| **49.** | **NOROVA SHAHODAT BAXODIROVNA, ORIPOV AZIZJON SHOIRJON OG‘LI**<br>O‘ZBEK SHEVALARIDA QARINDOSHLIK TERMINLARINING QIYOSIY TAHLILI | **256-260** |
| **50.** | **NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA**<br>ZAMONAVIY SHE’RIYATDA TASHXIS SAN’ATINING AKS ETISHI | **260-265** |
| **51.** | **NARIMOVA GULNORA ABDUMANNONOVNA.**<br>O‘ZBEK TILINING LEKSIK TIZIMIDA SEMANTIK O‘ZGARISHLAR | **265-269** |
| **52.** | **ОРАЗ А.Н.**<br>ҚАЗАҚ ТІЛІН ОҚЫТУДА ЛЕКСИКАЛЫҚ ДАҒДЫЛАРДЫ ДАМЫТУ: ЖАТТЫҒУЛАР ЖҮЙЕСІ МЕН СӨЗДІК ЖҰМЫСЫНЫҢ РӨЛІ | **269-277** |
| **53.** | **QURBONOVA IRODA**<br>IJODKOR QALAMIDAGI TAQDIR VA TIL JILOLARI: BIOGRAFIK HAMDA LINGVISTIK TAHLIL | **277-280** |
| **54.** | **RAHMATULLAYEVA ZULFIYA DILSHOD QIZI**<br>O‘ZBEK TILIDAGI SHAXSIY YOZISHMALARDA AYOLLAR NUTQIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLARNING QO‘LLANILISHI | **280-283** |
| **55.** | **RAXIMOVA DILOROM**<br>INKLYUZIV TA’LIMDA KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILAR UCHUN O‘ZBEK VA TURK ADABIYOTLARINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (QIYOSIY TAHLIL) | **283-290** |
| **56.** | **RAHMONOV NAVRO‘Z SATTOROVICH, MAHMUDOVA SHAHNOZA SOLIYEVNA**<br>TOG‘AY MUROD QISSALARIDA OBRAZLARNING XARAKTERINI OCHIB BERISHDA DIALEKTIZMLARNING AHAMIYATI | **290-295** |
| **57.** | **SUVONQULOVA LAYLO MAHMUD QIZI**<br>ARXETIP OBRAZLARGA XOS MUHIM XUSUSIYATLAR | **295-299** |
| **58.** | **SALIMOVA SHAXZODA**<br>TALABA IJTIMOIY MAQOMIGA EGA SHAXSLARNING NUTQIDA SLENGLARNING QO‘LLANILISHI | **299-308** |
| **59.** | **САЙФУЛЛАЕВ Б.Н. КАРИМБЕРДИЕВА А.У.**<br>ДИАЛЕКТІЛІК ЛЕКСИКА ЖӘНЕ ОНЫҢ КӨРКЕМ ӘДЕБИЕТ ТІЛІНДЕГІ РӨЛІ | **308-319** |
| **60.** | **САУРАНБЕКОВА Г.Б, НҰРИМАН Б.Т**<br>ЖҮСІП БАЛАСАҒҰНИДІҢ «ҚҰТАДҒУ БІЛІК» ДАСТАНЫНДАҒЫ БИЛІК ПЕН ӘДІЛЕТ ИДЕЯСЫН ОҚЫТУ | **319-326** |
| **61.** | **TO‘RAYEVA RO‘ZIXON RAHMATJON QIZI** | **326-331** |

| | | |
|---|---|---|
| | INKLYUZIV TA’LIMDA KO‘ZI OJIZ BOLALARGA O‘ZBEK VA TURK ADABIYOTINI QIYOSIY METOD ORQALI O‘RGATISH | |
| **62.** | **TUXTAYEVA MEHRIYO SHAVKATOVNA**<br>RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI | **331-335** |
| **63.** | **ХАЛИКОВА НУРИЛА САТЫБАЛДИЕВНА**<br>ЖАЗЫЛЫМ ДАҒДЫСЫН ҚАЛЫПТАСТЫРУ ЖӘНЕ ЭССЕ ЖАЗУ ӘДІСТЕМЕСІ | **335-345** |
| **64.** | **XUDOYBERDIYEVA SEVARA XAMZAYEVNA, TURSUNOVA SHAHZODA SHODIMUHAMMAD QIZI**<br>O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARIDAGI IJTIMOIY–MAISHIY LEKSIKALAR TAHLILI | **345-348** |
| **65.** | **XUDOYBERDIYEVA SEVARA XAMZAYEVNA, MUSTAYEVA XOLIDA OLIM QIZI**<br>O‘LMAS UMARBEKOVNING “ ODAM BO‘LISH QIYIN” ROMANIDAGI VOQELIK VA BADIIY XARAKTER | **348-351** |
| **66.** | **XUDOYBERDIYEVA SEVARA XAMZAYEVNA, BAHRIDDINOVA GANJINA SUNATILLO QIZI**<br>OYBEKNING “QUTLUG‘ QON” ROMANIDA TARIXIY VOQELIK VA MILLIY XARAKTER KONSEPSIYASI | **351-354** |
| **67.** | **YOQUBOVA SEVARA BAXTIYOROVNA, IBRAGIMOVA NILUFAR ISABOY QIZI.**<br>GLOBALLASHUV JARAYONIDA O‘ZBEK TILINING TARAQQIYOTI | **354-357** |
| **68.** | **YOQUBOVA SEVARA BAXTIYOROVNA, HOTAMOVA SARVINOZ SHUKRILLOYEVNA**<br>KOMMUNIKATIV SINTAKSIS ASPEKTIDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING NUTQDA IFODALANISHI | **357-361** |
| **69.** | **YOQUBOVA SEVARA BAXTIYOROVNA, MADIRIMOVA NIGORA OTABEK QIZI**<br>TINGLAB TUSHUNISH MALAKASINI BAHOLASHNING PSIXOFIZIOLOGIK MEXANIZMLARI | **361-366** |
| **70.** | **ZIYATOV ABDUXOSHIM ABDUVALI O‘G‘LI**<br>AXBOROT MAKONIDAGI O‘ZGARISHLARNING TILIMIZ RIVOJIGA TA’SIRI XUSUSIDA | **366-370** |
| **71.** | **SHARIPOVA DILDORA RASHITOVNA.**<br>FALSAFA QOMUSIY LUG‘ATIDA “MA’NAVIYAT” LEKSIK KATEGORIYASIGA OID SINONIMLARNING BERILISHI | **370-374** |
| **72.** | **SHAKAROVA DILAFRUZ G‘AYRATJON QIZI**<br>MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATINING POETRIK XUSUSIYATLARI | **374-379** |